

*Qobilova Zarnigor O`ktamovna  
SamDU o`zbek filologiyasi fakulteti  
1-kurs magistranti*



**Annotatsiya:** Maqolada o`zbek sovet adabiyoti me'yorlaridan ajralib turadigan, adabiyotda milliy ruhdagi asarlari bilan ajralib turgan atoqli adib Tog`ay Murod romanlaridagi timsol va metaforalar tahlil qilinadi. Asarlarining g`oyaviy-modiy jihatlari baholanadi, poetik xususiyatlari, badiiy o`ziga xosligi atroflicha ko`rib chiqiladi, asarlarga o`zgacha joziba baxsh etuvchi omillar asoslanadi.

**Kalit so`zlar:** metafora, timsol,qadriyat, millat,istiqlol,o`xshatish .



Tog`ay Murod asarlari o`zbek tilidagi noyob o`xshatishlarni, milliylikni adabiyotga go`zal bir bezaklar bilan olib kirdi. “Tog`ay Murod o`zbekka o`zining nasriy ruhini qaytarib berdi. U o`qirmanlari qalbida or tuyg`usini, yaqin insonlari uchun tirkak bo`lish uchun ma’suliyatni bo‘yniga olish tuyg`usini singdirishga harakat qildi” - deb ta’kidladi adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo’ldoshev<sup>1</sup>.

Tog`ay Murod – o`zbek adabiyotiga betakror uslub kiritgan yozuvchi sifatida kitobxonlarning sevimli adibiga aylandi. Tog`ay Murod asarlarida go`zal o`xshatishlar va timsollar asarni yanada jonliroq qilishga xizmat qilgan. Har bir asarda yozuvchining yashab o’tgan makon va zamonga xos til unsurlari aks etib turadi.

Tog`ay Murodning ilk romani “Otamdan qolgan dalalar” adib ijodidagina emas, milliy adabiyotimizning so’nmas asarlaridan biridir.“Otamdan qolgan dalalar” ramziy roman. Asarda bosh qahramon Dehqonqul o`zbek xalqining timsoli sifatida tasvirlangan. Dehqonqul obrazining milliy xarakteri shakllanishida til asosiy o`rin

<sup>1</sup>Tog`ay Murod. “Tanlangan asarlari”ning 3 – jildi taqdimoti. 04.03.2020-yil

tutgan qiziqarli asardir. Keling, romandagi bir nechta asosiy jihatlarni ajratib ko‘rsatamiz:

Romanda Dehqonqul nutqi asarga reallik beribgina qolmay, gap ritmi va tuzilishiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Bu qahramon tomonidan tasvirlangan tafsilotlarga alohida ruhiy manzara va e’tiborni yaratadi. Muallif tomonidan Dehqonqul o’ta sodda va beg‘ubor tasvirlanadi. O’zbeklarga xos bu odatlar muayyan belgi, ya’ni o’ziga xos xususiyatlarga ega milliy ramz sifatida qabul qilinishi mumkin.

Dehqonqulning o‘ziga xos nutqining tavsifi, jumladan, qisqa so‘zlar, iboralar, takrorlar hikoyaga jonlilik qo‘shadi. Romandagi metaforalar nafaqat tasvirlash, balki qahramonning millatparvarlik va hissiy holatini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Taqqoslashning ifodaliligi Dehqonqulning munosabatlari, mentaliteti va xarakterining ijobjiy va salbiy tomonlarini alohida ta’kidlaydi.

Bu asarni yozishda yozuvchi o‘zining hayotini taftishdan o’tkazibgina qolmasdan asarda metafora va timsollardan foydalangan holda asarni yanada ta’sirli qilishga harakat qilgan.

Jumladan: *Kun qiyomdan-qiyom bo’ldi, Toshkent bilan Qo’qon orasi ikki qosh oralig`iday keladi, bir juft oqbadan-oqbadan olabo’ji dala oralab borardi, capm-собакалар!-deydi*.<sup>2</sup> Yozuvchi asarda mateforalardan tashqari timsoldan ham o‘rinli foydalangan. *Dehqonqul-hayoti,taqdiri,ruhiy dunyosi ona zamin, kindik qoni to`kilgan muqaddas tuproq bilan bog`liq o`zbekning timsoli.* *Aqrab – yurt ozodligi, millat erki uchun shahid ketgan vatanparvar o`zbek yigitining timsoli.* *Jamoliddin - ko’ksida ona zaminga mehri bo’lgan, ona tuproqni asrab-avaylagan, butun umrini dalasiga bag’ishlagan, barcha qiyinchiliklarga bardosh bergan o’zbek xalqi timsoli.* Bu misollar orqali asarda o’zbek xalqining o’y-hayollari, orzu-umidlari aks ettirilgan. “Otamdan qolgan dalalar” romanida yozuvchi metaforalardan ham unumli foydalangan. Bu esa romanning ta’sirchanligini yanada orttirgan. “Bu dunyoda o’lib bo’lmaydi” bo’lmaydi romani yozuvchining umrining oxirida yozilgan bo’lib, avvalambor, bu romanda yozuvchini davning ijtimoiy masalalari, insonning axloqiy qiyofasi, mehnatga, insonlarga bo’lgan munosabati tashvishga soladi. Burch, ma’suliyat, mehnatkashlik, jasorat, haqqoniylit, samimiylit, mehribonlik – yozuvchi badiiy so’z orqali ifoda etgan insoniy fazilatlardir. Shu bilan bir qatorda undagi bosh qahramon- Botir firqa obraqi timsol sifatida kelgan. Botir-qalbiga qulq soladigan mard inson. Firqa –jamiyatdagi o’zgarishlarga tayyor turadigan inson. Bu romanda ham yozuvchi turli o’xshatishlardan foydalangan .Jumladan: *Tong mahali oqarmagan sutday. Tongni yozuvchi hali sog’ilmagan sutga qiyoslayapti.* Bu esa yozuvchining sodda o’xshatishlar orqali asarning sodda o’qilishini ta’min etgan. *Toshkent bilan Qo’qon orasi ikki qosh orasiday.* Bu yerda ham jonli o’xshatishdan foydalanalilgan va asarning sodda va ravon o’qilishini ta’minlagan. *Otanngi ko’rdim ahmadi forig’, onangni ko’rdim tovoni yoriq.* Yozuvchi bu jumlanli qo’llash orqali o’sha davr tuzumini yaqqol ko‘rsatib bergan. Inson avvalo kim ekanligni unutmasligi lozim degan g’oyani anglashimiz mumkin. *Onalar tasbehday-tasbehday tizilib o’tirdi, tong sahar-*

<sup>2</sup>Тоғай Мурод. Романлар ва қиссалар. Шарқ нашиёт-матбаа акциядорлик компанияси. Тошкент-2019. 16-бет

*oq bilan qora ipni ajratib bo’lmas vaqt.*<sup>3</sup> Romanda juda chiroyli o’xshatishdan foydalanilgan. Bu o’xshatishda ham xalqona so’zdan foydalangan. *Shu vaqt darvoza oldida besh-olti dehqon qora berdi.* Ikkala romanda ham Tog`ay Murod go`zal o’xshatishlar va timsollar keltirish orqali asarning ravon o`qilishini ta’milagan va o`sha davr tuzumini, holatini o`quvchi ko`z oldida hayotiy dalillar orqali jonlantirgan. Shuningdek, adabiyotimizda paxtakorning zahmati, fojiasi, dard-u quvonch-u armonlarini yorqin badiiy tasvirlarda ifodalagan salmoqli asarlar ko’p emas. Qarang, ne baxtki, Tog`ay Murod “Otamdan qolgan dalalar” romanini o’sha kemtikni to’ldirdi. To’ldirib qolmasdan, yozuvchini o’z so’zlari bilan aytganda, o’zbek xalqiga haykal qo’ydi.<sup>4</sup> Yuqorida keltirilgan fikrlar bizni yanada chuqurroq mushohada yuritishga, o’tmishga nisbatan befarq bo’lmaslikka chorlab turadi. Bunday bebaho adabiyot namunalarini yaratish uchun avvalo, rassom ranglarni bir-biridan farqlay olish, bastakordek tovushlarni tiniq eshita bilish lozim. Tog`ay Murod ana shunday rassom va bastakor adibdir. Adib asarlarini o’qiganda, asar o’qibgina qolmay, mungli bir qo’shiq tinglaganday bo’lamiz.

“Otamdan qolgan dalalar” romanida qo’llangan timsollarning xilma-xillagini ko’rib ularning asarning g’oyasini va qahramon xarakterini ochib berishagi o’rnini nihoyatda beqiyos ekanligiga amin bo’lamiz. Adib o’z tilini tabiiyligini ko’rsatish uchun vohasiing shevalari, timsollar va metaforadan unumli foydalandi. Asar sodda tilda kamtar dehqon tilidan bayon qilingani sababli undagi jaydari so’zlar kitobxon e’tiborini o’ziga tortmasdan qolmaydi. Yozuvchi qahramon tilidan metafora va timsollarni ishlatganda, ularning ruhiyati va atrofdagilarga munosabatini ham hisobga oladi. Yozuvchi daftarlari ichida quyidagi ohangdor jumлага nazar solsak: *“Asarlarim qisqa – qisqa bo’lib qoldi, jajji-jajji bo’lib qoldi. Ruboiy misol bo’lib qoldi, uch minutlik qo’shiq misol bo’lib qoldi. Bir daqiqalik tabassum misol qoldi. Ikki dona marjon ko’z yosh misol bo’lib qoldi. Bir zarblik, nafaslik hayqiriq misol bo’lib qoldi”*.<sup>5</sup> Tog`ay Murod o’ziga qat’iy ishongan adib edi. O’zini qanday ijodkor deb bilmasin, zabardast yozuvchimiz davlatimiz va xalqimiz tomonidan e’tirof etilmoqda. “Otamdan qolgan dalalar” romanida quyida keltirilgan jumлага e’tibor qaratamiz: *Yozuvchilar-paxta dalalarida oppoq tong yulduzлari*-romandagi har bir obraz uni o’rab turgan muhitning badiiy talqinini yaratishda adib qo’llagan hajv va kinoya o’sha davrga qaratilgan edi. Tog`ay Murod ushbu nafaqat murakkab mavzuni, balki badiiy talqini bilan milliy adabiyotimizda jiddiy voqelik bo’ldi. Asarning qurilishi tildagi ifoda va joziba, oddiylik, samimiylilik asar muvafaqqiyatini ta’milagan asosiy omildir. Har ikkala roman markaziga e’tibor qilsak, davr voqeligini qalbidan o’tkazib, uning ta’sirida yuzaga kelgan kechinmalarni ifodalayotgan lirik qahramon bu Tog`ay Murodning o’zidir. Tog`ay Murod e’tiborini oddiy inson qalbiga, ruhiyatiga qaratdi. Tog`ay Murod so’zlarining imkonini keng. Uning asarlari o’zi bir lug’at. Agar bu so’zlarni yig’ib nashr qilinsa, unutilgan yoki voha va vodiylarimizda ishlatilayotgan so’zlarimiz tilimiz xazinasini boyitadi. Yana bir jumлага e’tibor qilaylik. *Bahor podasidan sut hidi keldi, umid-odam uchun misoli ufq, bari katta g’oz*

<sup>4</sup>Shodmon Otabek. Tog`ay Murod zamondoshlari xotirasida. Barhayot ijod. 75-76-betlar.

<sup>5</sup>Farrux Jobborov. Qalblarni larzaga solgan xirgoyi // “Hurriyat” gazetasi. 2007-yil 6-7-betlar

**turdi, odamzot-da daraxt misol urug'dan unadi, hayat misol bir bog' bo'ladi.** Yozuvchi asarlarini nasriy asar sifatida shunchaki o'qiyimiz lekin, nazm sifatida-chi? Kishi e'tiborini tortadi. Kitobxon his va aqlini bir qilgan holda bu jumlanı zamirida ko'p manzaralarni ko'rishi mumkin. Bizga ma'lumki, bahor faslida ikki xil bulut bo'ladi. Birdan osmonda paydo bo'lib, sel quyib beradi. Sut hidini oq bulutlar yodga soladi. Birgina tashbeh kitobxon hayol olamini kengaytiradi. Inson va borliqning uzviyilagini birgina jumla yaqqol ko'rsatib beradi. **Umid-odam uchun misoli ufq-**bu yerda umidning inson hayotidagi ahamiyati, ufq singari yuksak ekanligi, qahramon orzu-umidlarini yaqqol aks ettirib bergen. **Bari katta g'oz turdi**-ushbu o'xshatishda bevosita o'sha davr ijtimoiy-siyosiy tuzumga munosabatni ko'ramiz. **Odamzot-da daraxt misol urug'dan unadi, hayat misol bir bog' o'ladi**-ushbu jumlada hayotiy-falsafiy o'xshatishni guvohi bo'lamiz. Qahramon ruhiyatini tahlil qilish, bosib o'tilgan umrga nazar, insonning jamiyat va atrofdagi insonlar bilan munosabati, umr yo'li davomida chiqargan hayotiy xulosasi Tog'ay Murod romanlarining asosiy mazmun-mohiyatini belgilab keldi.

Tog'ay Murod tabiatning nihoyatda ziyrak kuzatuvchisi. Kitobiy tilda aytadigan bo'lsak, qog'oz va qalamni asraydi, kitobxon vaqtini tejaydi. Fikrlashga undaydi. Tog'ay Murod so'zi, olami, tasvirini yuza, o'rta va chuqur qatlamlariga e'tibor qaratdi. Kitobxonga asarni ham nasriy, ham poetik asar sifatida mutolaa va tahlil qilishga imkon yaratdi. Hikmat aytish hamma shoir va adibga nasib qilmaydi. Ko'pchilik adiblar voqeа bayoni bilan band, ko'p shoirlar kayfiyat hayajoni bilan. Ijodni ma'rifat, ibrat sifatida ulardan o'rganish qiyin. Tog'ay Murod ijodida insonlarning oddiy gapi hikmatday quyma. Adabiyotshunos olim professor Uzoq Jo'raqulov quyidagi fikrlarni keltirdi: “*Tog'ay Murod yangilik qilishdan cho'chimadi. Hadiksiramasdan janrga yangicha yondashdi va asarlari xalqqa adabiyot ixlosmandlariga ma'qul keldi. Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'qigan, daho ijodkorlarga murojaat qilgan adibning tarjimada ham hali e'lon qilinmagan ko'p ishlari bo'lishiga ishonaman. Umid qilamanki, to'liq holda bo'lmasa ham qo'lyozmalari ko'zdan kechirilib jamoatchilikka taqdim etilsa*”-deb ta'kidladilar”.<sup>6</sup> Adib asarlari zamon yoki davr o'zgaradimi o'z qadr-qimmatini yo'qotmaydigan baho durdonaga aylandi. Adib asarlarini qo'lga olgan inson befarq mutolaa qilmasdan qolmaydi. Kitobxon qalbida milliylikka, o'zlikka nazar singari ezgu fazilatlarni jonlantiradi.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, Tog'ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanidagi tafsilotlar, timsol va metaforalar qahramonlarning psixologik xususiyatlarni ifodalashda asosiy o'rinn tutadi. Muallif o'quvchi idrokini faollashtirib, uni ijodiy idrok etishga, tasavvurini kengaytirishga ruhlanТИrib, timsol va metofara kuchidan foydalanishga intiladi. Romanda qo'llangan xulq-atvor va nutq uyg'unligi (psixologik dominantlar) sodda o'zbek dehqonining chinakam obrazini yaratishga asos bo'lgan.

Yozuvchi ijodida badiiy nasrga xos bo'lgan ritmnning hissiy ta'sir ko'lami turli jihatlarda namoyon bo'ladi. Matn ohangi badiiy tasvirning muhim elementi sifatida

<sup>6</sup>Tog'ay Murod. “Tanlangan asarlari”ning 3 – jildi taqdimoti. 04.03.2020-yil

qaraladi. Muallif ko‘p asrlar davomida og‘zaki va mumtoz nasrda keng qo‘llanilgan sa’j va takror kabi uslublarni muvaffaqiyatli joriy etgan. Ushbu usullar matn qismlarining nisbiy tengligini ta’kidlaydi, har bir gapni ixcham o‘lchamdagи qismlargа ajratadi. Bunday yondashuv nasrda ritm yaratibgina qolmay, balki asarning hissiy ta’sir kuchining ko‘lamini ham oshiradi. Bu unsurlar Dehqonqul xarakterining teranligi va murakkabligini, milliy qiyofa yaratishda til va uslubning ahamiyatini ko‘rsatib beradi.

Tog`ay Murod asarlari o`zbek adabiyotidagi yangilanishni milliylikka asoslab yaratgan ijodkorlardan biridir. Uning asarlarida so’nggi yuz yilda o`zbek millati boshdan kechirgan fojialarning aniq yaxlit tasavvuri mavjud. Bu tarixiy davrda o`zbek xalqi turmush tarzi, ruhiy kechinmalarini yaqqol ko‘rsatib beruvchi boshqa ijodkorni misol keltirish qiyin.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Tog`ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. -Toshkent -1994.
2. Tog`ay Murod. Bu dunyoda o’lib bo’lmaydi. -Sharq nashriyoti. Toshkent-2019.
3. Tog`ay Murod. Romanlarva qissalar. “Sharq” nashriyot matbaa uyi. Toshkent 2019.
4. Tog`ay Murod. “Tanlangan asarlari”ning 3 – jildi taqdimoti. 04.03.2020-yil
5. O’rozov A. T. Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarining til xususiyatlari haqida// Til va adabiyot ta’limi.2009-yil 5-son.
6. Shodmon Otabek. Tog`ay Murod zamondoshlari xotirasida. Barhayot ijod. 75-76-бетла
7. FarruxJabborov. Qalblarnilarzagasolganxirgoyi // “Hurriyat” gazetasi. 2007-yil 6-7-betlar
8. Тогай Мурод. Романлар ва қиссалар. Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси. Тошкент-2019. 16-бет
9. “Men qaytib kelaman”. Tog`ay Murod zamondoshlari xotirasida. Tuzuvchi – Barhayot ijod. To’plovchi -Ma’suma Ahmedova
10. Otayev R. Dilrabo qo’shiqlar yangrayveradi// Sharq yulduzi, -1984,-№ 2. 162-163-bet